

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH HAR BIRIMIZNING BURCHIMIZDIR.

Jumanazarova Yulduzxon Rustam qizi

Buxoro Davlat Universiteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 5\4guruh.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14105486>

**Annotatsiya.** Korrupsiya davlat va jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, xalqning adolatga bo'lган ishonchiga jiddiy putur yetkazadigan xavf, eng yomon illatlardan biri bo'lib, kelmoqda. Hozirgi kunda rivojlanib kelayotgan mustaqil O'zbekistondagi ayrim sohalarining taraqqiy etishiga to'sqinlik qilayotgan korrupsiya sekin astalik bilan yo'qolib bormoqda desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Lekin bu zararli illatni nafaqat ta'lim tizimi balki jamiyatning barcha sohalaridan quvib chiqarishimiz uchun hamma birdek harakat qilmasa, korrupsiya holatlari yuzaga chiqishi bilan o'z vaqtida chora tadbir ko'rmasa Yurtboshimiz tomonlaridan barcha amalga oshirilayotgan islohatlar o'z natijasini ko'rsatmaydi. Zero, yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda, qonunlar va farmoyishlar qabul qilinmoqda. Ularning ijrosi ta'minlanishida barchamiz birdek harakat qilishimiz va ushbu zararli illatga qarshi tura olishimiz kerak.

**Kalit so'zlar:** Yoshlar, Korrupsiyaga qarshi kurashish, Shaffoflik, Adolat, Jamiyat, Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun, Davlatlararo integratsiya.

### IT IS THE DUTY OF EACH OF US TO FIGHT AGAINST CORRUPTION.

**Abstract.** Corruption is one of the worst vices, which has a negative impact on the development of the state and society, and seriously undermines people's confidence in justice. It is no exaggeration to say that corruption is slowly disappearing. If everyone does not act in the same way, if they do not take measures in time when corruption occurs, all the reforms implemented by our President will not show their results. Because in our country, a number of measures are being implemented to fight corruption, laws and orders. We all must work together to ensure their implementation and fight against this harmful evil.

**Key words:** Youth, Fight against corruption, Transparency, Justice, Society, Anti-corruption law, Interstate integration.

### ДОЛГ КАЖДОГО ИЗ НАС – БОРОТЬСЯ С КОРРУПЦИЕЙ.

**Аннотация.** Коррупция является одним из самых страшных пороков, который оказывает негативное влияние на развитие государства и общества, серьезно подрывает веру людей в справедливость. Не будет преувеличением сказать, что коррупция, которая мешает, постепенно исчезает. Если каждый не будет работать вместе над искоренением коррупции, если он не примет вовремя меры, когда возникает коррупция, все реформы, проводимые нашим Президентом, не принесут результатов. Мы все должны работать вместе, чтобы обеспечить их соблюдение. и противостоять этому злу.

**Ключевые слова:** Молодежь, Борьба с коррупцией, Прозрачность, Правосудие, Общество, Антикоррупционное законодательство, Межгосударственная интеграция.

**Kirish.** Korrupsiya bir necha yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi.

Korrupsiya bizning kunlarga yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag tugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan arab davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo'lomagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma vaqt davom etgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurash ilk bor miloddan avvalgi XXIV asrda Mesopotamiyaning Lagash degan shahar-davlatida boshlangan, lekin taassufki, barcha sayharakatlar zoye ketgan. Keyingi zamonalarda ham korrupsiyaga qancha-qancha kurashlar yuz berdi, lekin ular besamar yakun topdi.

Insoniyat tarixida korrupsiyani tugatish yo'llari va huquqiy asoslari Hindistonda yaratildi.

Bundan 2,5 ming yil avval yozilgan "Artxashastra yoxud Siyosat ilmi" kitobi davlatni boshqarish va xo'jalik yuritish mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, o'sha davrning siyosiy va iqtisodiy qomusi sifatida dunyoga keldi. Bu asarga davlatni tuzish, boshqarish va uni rivojlantirishning huquqiy asoslari, deb qarash ham mumkin. Kitob mualifi sifatida brahman Kautile nomi (u Chanakya ismi bilan ham mashhur) zikr etiladi. "Artxashastra" ning 26-bo'limi korrupsiyaga bag'ishlangan. Bo'limda korrupsiya "o'zlashtirish" iborasi orqali izohlanadi: "Shohning shaxsiy yoki boshqa mulklariga qo'1 cho'zish o'zlashtirishdir. "Artxashastra" da poraxo'rlikning qirqta turi tasnif etiladi. Korrupsiyani oldining oldini olishga javobgar mansabdar shaxs vaxti-vaxti bilan xalq to'planadigan joylar va bozorlarda quyidagicha murojaat qilib turishi lozimligi aytildi: "Biron bir boshliqdan zarar ko'rganlar bo'lsa, shu haqda bizga xabar bersinlar".

Alisher Navoiyning zamondoshi, podshoh Husayn Boyqaroning voizi Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Axloqi muhsiniy" asarida shahzodaga nasihat tariqasida quydagi pandni bergen edi:

"Ummollardan (ish yurituvchi amaldorlar) pora olishdan ehtiyyot bo'lsin. Bilsinki, to bir kishi boshqalardan pora olmasa, boshqaga pora bermaydi. Agar vazir pora olishga sabab bo'lsa, pora olishga ruxsat bergen bo'ladi. Pora olish va pora berish haromdir va pora olgan pora bergandan yomonroq bo'ladi, chunki oluvchi beruvchi oldida zabun bo'ladi".

Bu holat Usmoniyalar sultanatida ham istisno emas edi. Xususan, dehqonlardan turli soliqlarni to'lashda harbiy xizmatchilar qing'irliklar sodir etardi. Bu suiiste'mol holatlarini hattoki Usmoniyalar sultanati shayxulislomlari chiqargan maxsus fatvolar ham bartaraf qila olmadi. Sipohilar nimadir "uzatish" evaziga asta-sekinlik bilan harbiy yurishlarga bormay qo'ydi, o'zlariga taqdim qilingan yerdarda muqim qolib, amalda davlat mulkini shaxsiy mulk qilib oldi. Davlat esa, o'z navbatida, vazirlar timsolida ko'ngilsiz reaksiyadan xavfsiragan holda, harbiylar bilan to'qnashuvga borishdan hadiksirardi. Usmoniyalar sultanatida poraxo'rlik oqibati shu bo'ldiki, qo'shinlar harbiy tayyorgarligini yo'qotdi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator mag'lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi.

Xullas, qadim zamonaldayoq ushbu illatga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ham ko'ngildagidek natija bermagan

Oldin G'arb, keyinroq Osiyo davlatlarida bu masala chuqurlashib, jamiyatda "kasallik" hududi, ko'lami va darajasi kuchayib borayotgan ekan, nima qilmoq kerak, degan doimiy savol paydo bo'ladi. Nima qilsa, dunyonи egallab, mamlakatlar iqtisodiyotiga raxna solayotgan bunday balo-qazoning ta'sir doirasi kamayadi?!

Korrupsiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, u jamiyatning ayrim qatlamlari, toifalari, guruhlari kundalik faoliyatiga aylanib, o'zaro bir-biriga bog'lanib, chirmashib ketganligidan ko'z yumib bo'lmaydi. "Nozik", "chigalroq" ushbu masalada davlatning huquq-tartibot idoralari birmuncha hushyor, ziyrak bo'lishi, shuningdek, nodavlat tashkilotlari, turli komissiyalar, jurnalistlar, mustaqil sudlar tizimi faolroq ishlashi haqida tadqiqotchilar anchadan beri yozib keladi. Siyosatchilar, satsiologlar, psixologlar, tarixchilar, davlat hamda jamoat organlari, siyosiy partiylar, eng muhimi, amaliyotchilar masalani tahlil etish va yechimini topish ustida bosh qotirishi lozim.

Islom dinida ham pora harom qilingan, bu borada hadislар ham judа ko'p. Ulardan biri Payg'ambarimizning mana bu qarg'ishlaridir: "Pora beruvchiga ham, pora oluvchiga ham Allohnинг la'natи bo'lsin!". Yana ul zot aytadilar: "Pora beruvchini ham pora oluvchini ham, ikkovi orasida yurib porada vositalik qiluvchini ham Alloh la'natlasin!"

Qur'oni karimda poraxo'rlik bevosita taqiqlanadi: "Bir-birlaringizning mollariningzni botil yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang(Baqara surasi 188)

**Asosiy qisim.** Pora faqat nohaqlig-u zolimlarga yordam beruvchidir (Mahmud Zamashshari). Hozirgi davrdagi "korrupsiya" tushunchasini sharhlaydigan bo'lsak, u asosan, "shaxsiy foyda olish uchun hokimiyatni suiiste'mol qilish " ma'nosida ishlatiladi. Korrupsiya yomon hodisa, u yaxshi ta'lim-tarbiya ko'rmaslik va kam maosh oladigan amaldorlarning nokasligi oqibatida paydo bo'ladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda ba'zi mansabdorlarning tadbirkorlar va fermerlar xo'jaliklari mulklariga ta'magirlilik ko'zi bilan qarashi, bankdan kredit olishi yo'liga sun'iy to'siqlar qo'yishi zamirida korrupsiyaviy manfaatlar yotgan edi. Yoshlarning oliy ta'lim muassasasi, tanlov yuqori bo'lgan kollej va litseyga o'qishga kirishiga, talaba bo'lgandan so'ng esa joriy, oraliq va yakuniy nazorat bo'yicha zarur ballarni to'plashida ayrim "ustoz" larning ta'magirligi negizida ham shu illat yashab keldi. Shuningdek, nufuzi va maoshi yuqori bo'lgan korxona-idoralarga ishga kirishda, yuqori mansab darajasiga ko'tarilishda, turli tenderlarni yuritishda, xomashyo va boshqa resurslarni taqsimlashda korrupsianing xalq tilida "shapka" deb ataluvchi ko'rinishi urchiy boshladi. Ba'zan aholiga uy solish yoki foydalanish uchun yer maydoni ajratish, davlat mulkini xususiyashtirish, faoliyat yuriyish bo'yicha litsenziya olish kabi talab ehtiyoji yuqori bo'lgan sohalar ham o'zini korrupsiya manbai o'larоq namoyon etgани hech kimga sir emas.

BMT ma'kumotlariga ko'ra, hozirgi dunyoda har yili 1 trillion AQSH dollori hajmida pora beriladi. Jahan iqtisodiyoti har yili korrupsiya tufayli 2,6 trillion dollar mablag'dan ayrıldi, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foizidir. BMT Bosh kotibining bildirishicha, Korrupsiya odamlarni maktab, kasalxonalardan mahrum qiladi, investorlarni vahimaga solidi, tabiiy resurslar talon-taroj bo'lishiga sabab bo'ladi.

Pora o'nglanib ketgan ishlarni buzadi, bitayotgan ishlarni barbod qiladi (Yusuf Xos Hojib). Aytish lozimki, korrupsiya keltirib chiqarayotgan oqibatlar jamiyatlarni ich-ichidan yemirib, demokratik va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlarining qo'pol ravishda buzilishiga olib keladi, iqtisodiy rivojlanishni izdan chiqaradi, jamiyat va davlat uchun o'ta xavfli bo'lgan uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning keng yoyilishiga sharoit yaratib beradi.

Shuningdek, O'zbekiston dunyoga islohatlar mamlakati sifatida tanilib ulgurdi. Har jabhada o'zgarishlar, yangilanishlar kechmoqda. Boshqaruv tizimi shaffof, ochiq siyosat yuritish tamoyillari asosida yo'lga qo'yildi. Bu korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi. Gap korrupsiyaga qarshi kurashish haqida borar ekan, bu borada jamoatchilikning nazorati juda muhim ekanini alohida ta'kidlash kerak. Eng asosiysi, bu jarayonda yoshlarning faolligi sezilayotgani e'tiborga molik. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida korrupsiyaga barham berish masalasiga alohida to'xtalib, bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vasitalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi maqsadga muvofiq ekani takidladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huzurida Jamoatchilik kengashi tashkil etilib, uning tarkibiga yoshlar, xususan, Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti vakillari jalb etilishi ham yaxshi natija berishi, shubhasiz. Chunki, yoshlarimiz vatanparvarligi, mamlakat taraqqiyotiga befarq emasligi, fidoyiligi bilan ajralib turadi. Ularda hayotbaxsh g'oyalar, tashabbuslar ham ko'p. Albatta, barcha sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oqibatlarini o'rganish va oldini olish masalasi eng dolzarb vazifalardan biri. Yoshlar uchun esa eng muhim yo'naliishlardan biri, bu ta'lim sohasidagi va ishga kirish bosqichida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiya turlariga qarshi kurashish. Sababi, mamlakatimizning 18 milliondan ziyod qismi, ya'ni qaryib 55foizini tashkil etuvchi yoshlar aynan shu jarayonlarda korrupsiya bilan bog'liq vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo'lmas ekan, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz. Bu illat bilan nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, balki har bir jamoa jiddiy kurashishi kerak. Shuning uchun har bir davlat idorasiga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'z ichki dasturlari bo'lishi shart" degan so'zlari muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

Xalqaro va milliy huquq me'yorlariga asoslangan Korrupsiyaga qarshi kurashishning Milliy rejasি ishlаб chiqildi. Jinoyat – protsessual kodekslarida korrupsiyani sodir qilgan va unda qatnashgan shaxslarga nisbatan tegishli jazolar belgilandi.

Shuningdek, JKning 210-moddasi pora olish, 211-moddasi pora berish, 212-moddasi pora olish- berishda vositachilik qilish qonunga binoan jazolanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish va demokratlashtirish maqsadida 2014 yilda qabul qilingan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonun esa axborottan erkin foydalanish va bu borada xalqaro standartlar me'yorarini implementatsiya qilishda muhim qadam bo'ldi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2-fevraldagи "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish choratadbirlari to'g'risidagi qaroriga binoan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiya tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunning 3-moddasi. Korrupsiya-shaxsnинг o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim

etish.Korrupsiyaga oid huquqburzalik- korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish.

O'zbekiston Respublikasining Korupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunning maqsadi ham korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

### **Mohiyati.**

Abu Nasr Farobi "Fozil odamlar shahri" asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'onoq bo'ladigan muammolardan biri korrupsiyadir, deb qayd etgan. Bozor iqtisodiyoti tizimi kushondasi, davlatlar o'rtaida ikki va ko'p tomonlama hamkorlik, biznes hamda investitsiya rivojida shavqatsiz to'siq ham ayni shu korrupsiya hisoblanadi. Har yili o'nlab qo'shma korxonalarining ochilishi va yopilishi zamirida ana shu "ko'rinas qo'llar" yotadi. Korrupsiya darajasi yuqorilashgan davlatga chet el investisiyasini kiritish kamayib borayotganining asl sabablarini ham shu xavfli illatlardan izlash lozimga o'xshaydi.

Keyingi yillarda xorij, jumladan MDH mamlakatlari matbuotida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'llari haqida maqolalar paydo bo'la boshladi. MDHga a'zo mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, biz sho'ralar tuzumidan qutilganimizga o'ttiz yil bo'lganiga qaramay, sud-huquq organlari hamon davlat hokimiyatining itoatkor organiga aylanganicha turibdi. Bu jamiyat kushandasi, yaramas illat haqida davlatimiz rahbari har bir chiqishida ta'kidlab o'tadi.

### **Holati.**

Davlat va jamiyatda inson ongi, dunyoqarashi bilan bog'liq muammolar tahlilidan kelib chiqsak, sobiq ittifoqdan meros qolgan korrupsiya illatiga qarshi kurashda hali ancha aziyat chekishga to'g'ri keladi. Sababi, Xitoy va Singapurnikiga o'xshagan yuqorida quyigacha qat'iy ishlaydigan iyerarxiya tizimi hali to'liq ishga tushmagan. Aniqroq aytadigan bo'lsak, jinoyatchilar "kirdikor"larini fosh etishga urunib, mustaqil surushturuv olib boradigan fidoyi jurnalistlar himoyasi ishlamaydi. Bundan ham achinarlisi, hozirgi kunda birob-bir rahbarning yashirin boylik orttirishini isbotlagan maqola matbuotda chop qilinsa-da, unga qat'iy choralar ko'rilmaydi, ahvol ham o'zgarmaydi.

Jamiyatda ustuvor soha-ta'lism tizimida tahsil oladigan o'smirlar, yoshlar ongida tolerantlikni uyg'otish muammosi oldimizda ko'ndalang turibdi. "Jamiyatda poraxo'rlik illatini yengib bo'lmaydi", degan fikr yoshlar ongida shakillanib qolgani (Xitoy yoki Yaponiya fuqarosi ongida nega u shakllanmaganligi alohida mavzu) eng katta kamchiligidir.

Korrupsiyani idrok etish indeksini-davlat sektoridagi korrupsiya darajasini ekspert va biznes vakillari baholaydi. Avvalgi yillarda bo'lgani kabi, dunyo mamlakatlarining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining o'rtacha bali 43 dan 50 gacha ko'rsatkichda turibdi. Indeks tuzuvchilarning fikricha, bu aksariyat mamlakatlarning korrupsiyani jiddiy nazorat qila olmaganligi va demokratianing inqirozidan dalolat beradi.

Haqiqatan, korrupsiya muammosi bugungi kunda dunyo miqqosida o'z yechimini talab etayotgan birinchi masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois ham, jahon hamjamiyati bu illatga qarshi keskin kurashmoqda. Bu yo'nalishda bir qator xalqaro hujjatlar ham qabul qilingan bo'lib BMT homiyligida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish rezolutsiyasi (1995 y.), Davlat mansabdar shaxslarining xalqaro axloq kodekisi (1996 y), Xalqaro tijorat tashkilotlarida

korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashish deklaratsiyasi (1997 y.), Korrupsiyaga qarshi konvensiya (2003 y) va boshqalar shular jumlasidan.

**Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy pirinsiplari:**

Qonuniylik;

Fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

Ochiqlik va shaffoflik;

Tizimlilik;

Davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

Javobgarlikning muqarrarligi.

**Davlat dasturi ijrosi doirasida:**

1.O'zbekiston Respublikasining 9 ta qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta farmoni va 4 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 2 ta qarori loyihalari ishlab chiqildi.

2.Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tartibi yana-da takomillashtirildi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bosqichma-bosqich korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilmoqda.

3.Moliyaviy nazoratni amalgalashuvchi organlar faoliyati tartibga solinib, byudjet qonunchiligini buzish xavfini tahlil qilish maqsadida “Elektron nazoratchi-taftishchi” dasturiy majmuasi yaratildi.

Davlat xaridlari tizimida korrupsiyaning oldini olish choralar ko'rildi, davlat xaridlari jarayonlari doimiy monitoring qilinib, natijalarini e'lon qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

4.Davlat organlari va tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi joriy qilindi

Ushbu tizim doirasida dastlab eksperimental tariqasida 24 ta davlat tashkilotining faoliyati baholandı.

5.Davlat organlari faoliyatida Korrupsiyaviy xavflarni baholash elektron tizimi ishga tushirildi.

6.Korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxus dasturiy taminot, shuningdek, 1253 qisqa raqamli “Call markaz” faoliyati yo'lga qo'yildi.

7.”9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni“ munosabati bilan har yili keng ko'lamlı Aksilkorrupsiya haftaligini o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Xususan, “Davlat fuqarolik xizmat to'g'risida” gi qonun qabul qilinib, davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi, majburiyatları, cheklar hamda korrupsiyaning oldini olishga doir chora tadbirlar belgilab berildi.

**Xulosa.**Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir jamiyat uchun muhim masala bo'lib, uning oldini olish va yo'qotish uchun tizimli, qat'iy va samarali choralar ko'rish zarur. Korrupsiya faqat iqtisodiy va siyosiy tizimlarni zaiflashtirmay, balki jamiyatda adolatsizlikni kuchaytirib, fuqarolarning ishonchini yo'qotishga olib keladi. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyatni birgalikda harakat qilishlari lozim. Korrupsiyataraqqiyot kushandası, xavfsizlikka tahdid tug'duruvchi xavfli jinoyat. Yoshlar korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi.

Ularning to'g'ri tarbiya olishi, axloqiy qadriyatlarni ongli ravishda o'zlashtirishi, shuningdek, ta'lif va madaniyatning yuksalishi korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi.

Yoshlarning faol ishtiroki, jamiyatda adolatni ta'minlash va davlat boshqaruvini shaffof qilishga xizmat qiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda ta'lif va tarbiya, shuningdek, yoshlarning o'zaro hamkorligi va uyg'onishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali jamiyatda yanada adolatli va barqaror rivojlanishning poydevori yaratiladi. Eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishni oiladan boshlash darkor. Bu borada ayollarning roli katta, deb hisoblaymiz. Agar o'g'irlilik yoki pora hisobiga kelgan luqmaning tag-ildizini ayollarimiz surishtirib bilsalar, ochiq fikrini aytolsalar, turmush o'rtoqlari halol rizqni izlashga tushib, ishi va oilasida fayz-baraka, sokinlik hamda xotirjamlik qaror topishi, shubhasiz. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz.

Yalpi yutuq shundaki, korrupsiyani yo'qotish orqali jamiyatda adolat, taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni taminlash mumkin.

Mamlakatimiz kelajagini va obro'- e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro korrupsiya tahdidini zararli oqibatlarini doimo esda tutmog'i va unga qarshi kurashmog'i kerak.

## REFERENCES

1. Toshken davlat sharqshunoslik universiteti.info@tsuos.uz
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun
3. Karrupsiyaga qarshi kurashish [agentligi.info@anticorruption.uz](mailto:agentligi.info@anticorruption.uz)
4. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axbborot Texnologiyalar Universiteti. E-mail:info@tuit.uz